

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA FIRUZA SHARIPOVNA

**MUHAMMAD NASIRIDDIN TUSIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA
DAVLAT VA JAMIYAT MASALALARI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Abdullayeva Firusa Sharipovna

Muhammad Nasiriddin Tusiyning falsafiy qarashlarida
davlat va jamiyat masalalari 5

Абдуллаева Фируза Шариповна

Вопросы государства и общества в философских воззрениях
Мухаммада Насируддина Туси 21

Abdullayeva Firusa Sharipovna

Issues of state and society in philosophical views of
Muhammad Nasiruddin Tusi 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA FIRUZA SHARIPOVNA

**MUHAMMAD NASIRIDDIN TUSIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA
DAVLAT VA JAMIYAT MASALALARI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal799 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sharipova Oygul Tursunovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Qodirov Muhammadjon,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “4” iyul soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (325 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “19” iyun kuni tarqatildi.
(2023 yil “19” iyun dagi 9 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro‘zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A. Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Salomova H. Yu.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot globallashuv jarayonlari tobora keskin tus olayotgan sharoitda fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlaridan himoya qilish milliy xavfsizlik masalasi sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy qashshoqlik va axloqiy tanazzuldan himoya qilishda milliy merosdan unumli foydalanish, Sharq xalqlari axloqiy tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo'lgan hayo va odob, pokizalik, oliyhimmatlik, mehrshavqat va marhamat kabi xislatlar inson ma'naviy kamolotini yuksaltirishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Ayniqsa, bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida Nasiriddin Tusiy falsafiy qarashlarida ilgari surilgan mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy farovonligi, siyosiy va huquqiy barqarorligi, ma'naviy-madaniy rivojlanishi, xalqning orzu-umid va manfaatlarining ustuvorligi g'oyalarini "inson – jamiyat – davlat" konsepsiyasiga dialektik aloqadorligini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va qator ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlarida Sharq mutafakkir donishmandlarining gumanistik tamoyillar asosida bayon etilgan sharqona odob-axloq qoidalarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan o'rta asr Sharq mutafakkirlarining hayoti va ijodini, ma'naviy merosining barkamol yoshlarni tarbiyalashdagi nazariy metodologik ahamiyatini hamda ular tomonidan yaratilgan ta'limotlarda aks etgan axloqiy mezonlar, ijtimoiy adolat tamoyillari, ideal davlat va ijtimoiy baxt-saodatga doir g'oyalardan axborot xurujlari va ma'naviy tahdidlar xavf solib turgan hozirgi murakkab globallashuv davrida foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois Nasiriddin Tusiyning davlat va jamiyat to'g'risidagi falsafiy qarashlarini, fazilatli shaharda xalq manfaatlari ustuvorligi, adolat, qonun ustuvorligi, raiyyatga do'stona munosabat va inson qadri hamda axloqiy-siyosiy qadriyatlarga oid g'oyalarini ilmiy tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda inson erkin va farovon yashaydigan ma'naviy makonni barpo etish, ma'rifatli jamiyat qurish taraqqiyoti va istiqbolini belgilaydigan strategik dasturlar izchillik bilan olib borilmoqda. "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur"¹. Shu ma'noda Nasiriddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asarida davlat va jamiyat masalalariga oid falsafiy qarashlarini, tarbiya, adolat, tenglik, tinchlikni saqlashga da'vat etuvchi g'oyalarini barkamol inson tarbiyasidagi o'rni aniqlash va targ'ib qilish mexanizmlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: "O'zbekiston", 2021.- Б.225.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 6 noyabrda PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 23 iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 27 iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi 466-son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda Nasiriddin Tusiyning ilmiy merosini o‘rganish va undan foydalanish bo‘yicha E.Braun, Abbas Iqbol, M.Razavi, Sayyid Husayn Nasr, Hamid Dabashi, Muhammad Modarris, V. Madelung, Faxriddin Olguner, Murod Demirkol, Aykut Kar, Anor Gafurov kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan².

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan V.V.Bartold, I.P.Petrushevskiy, B.G.Gafurov, X.Dodixudoyev, H. Mehmetbeyli, M. Dinorshoyev, A. Sagadeyev, A. Rzayev, Sh.Ismoilov, N. Idibekov va boshqalarning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin³.

² Браун Э. Таърихи адабиёт дар Эрон. Техрон, 1358. – 1164 с.; Иқбол Аббос. Таърихи муғул. - Техрон, 1387. – 342 с; Разавӣ, М. Аҳвол ва осори Хоҷа Насируддини Тӯсӣ / М. Разавӣ. - Техрон, 1370. – 722 с; Seyyed Hossein Nasr. Islamic Philosophy from Its Origin to the Present: Philosophy in the Land of Prophecy, - SUNY Press, 2006, - P.199; Dabashi Hamid. Khwajah Nasir al-Din Tusi: The philosopher/vizier and the intellectual climate of his times. Routledge History of World Philosophies. - Vol I. History of Islamic Philosophy. - London: Routledge. 1996. - p. 529; Modarresi Mohammad. The biography and philosophical ideas of Khawja Nasir al-Din Tus. - Tehran: Amir Kabir. - p.52; Madelung W. As-Sahraistanis streitschrift gegen Avicenna und ihre Widerlegung durch Nasir-ad-Din at-Tusi. - In: Akten des VII Kongress für Arabistik und Islamwissenschaft, - Göttingen, 1974, - S.250-259.; Fahrettin Olguner. Üc türk-islam mütefekkeri Ibn Sina – Fahreddin Râzî-Nasireddin Tûsî düşüncesinde varoluş. - Ankara: Ongun Kardeşler Matbaası, 1985. – 137 s.; Murat Demirkol. Nasireddin Tûsî'nin İbn Sina Felsefesini Fahreddin Râzî'nin Eleştirilerine Karşı Savunması. XIV/1 – 2010. - 247-276; Aykut Kar, Anor Gafarov. Bilime Adanmış Ömür: Nasiruddin Tusi. İstanbul: Gece Kitaplığı Yay, 2017. – 295 s

³ Бартоль В.В. Сочинения: в 9 томах / В.В. Бартольд. – М., 1963. –Т.1. –С.87; Петрушевский, И.П. Земледелие и аграрные отношения в Иране в XIII-XIV веков / И.П. Петрушевский. – М.,-Л., 1960. –С.492.; Гафуров Б.Г. История таджикского народа в кратком изложении. – Сталинобод, 1947. – С. 299. Додихудоев Х. Очерки философии исмаилизма. - Душанбе: Дониш, 1976. – 142 с; Мамедбейли Г.Д. Основатель марагинской обсерватории Мухаммед Туси. - Баку, Изд-во АН Азербайджанской ССР, 1961.; Диноршоев М. Философия Насиреддина Туси. - Душанбе, 1968.; Ибрагим Т.И., Сагадеев А.В. ат-Туси. В кн.: Ислам:

O'zbekistonda Nasiriddin Tusiy falsafasida davlat va jamiyat masalalarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa-da, biroq M.Xayrullayev, H.Aliqulovlar izlanish olib borishgan. Bundan tashqari I. Mo'minov, M. Boltayev, M. Usmonov, G. Navro'zova, R. Shodiyev, M. Qodirov, G. Yunusova, O. Sharipova, E. Zoyirov, N. Qo'shshayeva kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida Tusiy va uning falsafiy-axloqiy ta'limoti haqida umumiy tasavvur hosil qilish mumkin⁴.

Yuqoridagi tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini e'tirof etgan holda aytish mumkinki Nasiriddin Tusiy falsafasida davlat va jamiyat to'g'risidagi qarashlarni aniqlash bo'yicha yaxlit kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan. Mazkur dissertatsiya mavzusi doirasidagi muammo shu jihati bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Nasiriddin Tusiy ma'naviy merosidagi davlat va jamiyatga oid qarashlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Nasiriddin Tusiy yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhitni ochib berish;

Nasiriddin Tusiy ilmiy ma'naviy merosini tadqiq etish;

Nasiriddin Tusiy merosida "davlat" va "davlat boshqaruvi" kategoriyalarining falsafiy mohiyati asoslash;

Nasiriddin Tusiy falsafiy ta'limotida jamiyat va uning falsafiy talqini ochib berish;

Tusiyning idrok nazariyasi va komillik falsafasiga oid g'oyalarining mohiyatini asoslab berish;

mutafakkirning ilmiy merosida adolat mezonning bugungi kundagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Энциклопедический словарь. - Москва: Наука, 1991, с. 238; Рзаев А.К. Насиреддин Туси. Политико-правовые воззрения. - Баку: Элм, 1983.; Исмаилов Ш.Ю. Пантеизм XIV века и его значение в истории развития материалистической философии в Азербайджане. В кн.: Методологические вопросы истории развития средневековой философии народов Закавказья. - Баку, Элм, 1982, с. 169-186.; Идибеков Н. Этика Насириддина Туси в свете его теории свободы воли. - Душанбе. "Дониш". 1987.

⁴Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. - Тошкент: 1971. Аликулов Х. Фалсафий мерос ва маънавий-ахлоқий фикр ривожини. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009. - 149 б. Мўминов И.М. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар. -Тошкент: Фан, - 1999.; Болтаев М.Н. Вопросы гносеологии и логики в произведениях ибн-Сины и его школы. - Душанбе: Ирфон, 1965. - 600 с; Усмонов М.А Основные этапы эволюции ислама. Автореф. Дис... д. филос.н. -Москва, 1978.; Наврўзова Г. Н. Хожа Баҳоуддин Накшбанд ҳаёти ва маънавий меъроси. - Тошкент: "Фан", 2021.; Шодиев Р. Ўрта Осиё тасаввуфи ва ахлоқий кадрятлар. - Самарқанд, "Зарафшон", 1992.; Муҳаммаджон Қодиров. Насриддин Тусийнинг "Ахлоқи Носирий" асари ва унинг таҳлили. - Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2013. - 124 б, Наврўзова Г., Юнусова Г. Иброҳим Мўминов тасаввуф хусусида.//Иброҳим Мўминов фалсафий ўқишлари. Бухоро. 2008. 8-б; Шарипова О.Т. Абдуҳолик-Ғиждувоний ҳаёти ва маънавий мероси. - Бухоро. 2008. - 198 б.; Зойиров Э.Х. Якуби Чархийнинг тасаввуфий ирфоний қарашлари. -Бухоро: "Durdona", 2023. -Б.128; Қўшшаева Н.М. Носириддин Тусий маънавий-ахлоқий таълимнинг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти. // Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. 2022. 49 б.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Nasiriddin Tusiyning davlat va jamiyat haqidagi falsafiy qarashlari hamda unga ta'sir o'tkazgan omillar tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti Tusiy faoliyati va uning "Axloqi Nosiriy" asaridagi adolat, tenglik, tinchlik va umuminsoniy komponentlarini hamda davlat va jamiyatga oid qarashlarining falsafiy ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli yondashuv, tarixiylik, mantiqiylik va vorisiylik, dialektik, germeneytik, qiyoslash, taqqoslash va umumlashtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Nasiriddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asarida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy farovonligi, siyosiy va huquqiy barqarorligi, ma'naviy-madaniy rivojlanishi, xalqning orzu-umid va manfaatlarining ustuvorligi to'g'risida ilgari surgan falsafiy qarashlarining Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasidagi "inson-jamiyat-davlat" tamoyiliga dialektik aloqadorligi asoslab berilgan;

Allomaning davlat boshqaruvida kadrlar tanlanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlari Yangi O'zbekistonda raqobatbardosh kadrlar zahirasini shakllantirish, davlat fuqarolik xizmatiga munosib kadrlarni oqilona va ob'yektiv tanlashni nazarda tutuvchi meritokratik prinsipiga tayanganligi dalillangan;

Nasiriddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asaridagi fazilatli shaharda xalq manfaatlari ustuvorligi, adolat, qonun ustuvorligi, raiyyatga do'stona munosabatda bo'lganligi va inson qadr-qiyamati yo'lida ezgu ishlarning amalga oshirilishi, adolatli davlat boshqaruvida axloqiy-siyosiy qadriyatlarning falsafiy mohiyati ochib berilgan;

Mutafakkirning falsafiy qarashlaridagi qonun ustuvorligi tamoyillari yunon va Sharq mutafakkirlari qarashlari bilan qiyosiy tahlil etilib, allomaning inson hayotining eng oliy qadriyat ekanligi, odil hukmdor qiyofasi, qonunning xalqparvarligi va jazoning gumanistik xarakterda bo'lishi lozimligi aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Nasiriddin Tusiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari asosiy ta'limotidan falsafa, siyosatshunoslik, islom falsafasi, ijtimoiy siyosat fanlari uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan;

Tusiyning davlat va jamiyatga oid siyosiy-falsafiy qarashlari asosida chiqarilgan xulosalardan siyosatshunoslik ilmiy maktabi o'quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan;

Tusiyning gumanistik g'oyalarga asoslangan boy ma'naviy merosi, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasiga aloqador mavhum jihatlar aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar birinchi manbadan olinganligi, yondashuv, uslub va usullar to'g'ri tanlanganligi, ilmiy ma'lumotlarning rasmiy va ishonchli dalillardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokamadan o'tganligi, milliy hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya hamda xulosa, taklif va tavsiyalarining

amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Tusiyning inson, jamiyat va davlat haqidagi g'oyalarining genezisi evolyutsiyasini aniqlashda, zamonaviy yoshlarda intellektual fazilatlarni, ma'naviy-axloqiy rivojlanishni shakllantirishda nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek "Falsafa", "Falsafa tarixi", "Ijtimoiy falsafa" fanlari mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan davlat boshqaruvidagi rahbar odobi, navfs tarbiyasi, halollik, poklik, to'g'ri so'zlilik, adolatlilik, bag'rikenglikni targ'ib etishda, yosh istiqbolli zaxira kadrlarni shakllantirishda, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlarining yosh avlodni tarbiyalashga oid profilaktik tadbirlar va ma'naviy targ'ibot faoliyatida, xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining buyuk mutafakkirlarning ilmiy va diniy merosini o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ularning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish faoliyatida, ommaviy axborot vositalarining ko'rsatuvlar va media materiallarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nasiriddin Tusiyning davlat va jamiyatga oid qarashlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Nasiriddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asarida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy farovonligi, siyosiy va huquqiy barqarorligi, ma'naviy-madaniy rivojlanishi, xalqning orzu-umid va manfaatlarining ustuvorligi to'g'risida ilgari surgan falsafiy qarashlarining Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasidagi "inson-jamiyat-davlat" tamoyiliga dialektik aloqadorligiga oid ilmiy yangiliklardan O'zbekiston yoshlar ittifoqining professional ta'limi muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlarining 2022/2023-o'quv yilining 1-yarim yilligiga mo'ljallangan namunaviy ish rejasining II Bob 12-bandidagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqida bildirilgan fikrlar va ularning yoshlar ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini yoritib berish bo'yicha "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" targ'ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar ittifoqi markaziy kengashining 2023-yil 11-yanvar 04-13/21-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarimiz o'rtasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik va mehnatsevarlik fazilatlarini yuksaltirishda ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

davlat boshqaruvida kadrlar tanlanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlari Yangi O'zbekistonda raqobatbardosh kadrlar zahirasi shakllantirish, davlat fuqarolik xizmatiga munosib kadrlarni oqilona va ob'ektiv tanlashni nazarda tutuvchi meritokratik prinsipiga tayanganligiga doir ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining "Asrlarning asraganlari", "Najot bilimda", "Sakkizinchi mo'jiza" teledasturlarida 2022 yilda efirga uzatilgan teleko'rsatuvlar, "Muloqot va munozara", "Qadriyatlar qadim beshigi" radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat

teleradiokompaniyasining 2022 yil 14 dekabrda 1/332-son ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning xalqimiz ma'naviy merosi haqidagi ilmiy-tasavvur va tushunchalarining boyishiga, ko'rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini oshirishga xizmat qilgan;

Nasiriddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asaridagi fazilatli shaharda xalq manfaatlari ustuvorligi, adolat, qonun ustuvorligi, raiyyatga do'stona munosabatda bo'lganligi va inson qadr-qiymati yo'lida ezgu ishlarning amalga oshirilishi, adolatli davlat boshqaruvida axloqiy qadriyatlarning falsafiy mohiyatiga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning V bobi "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar"ning 28-bandi asosida 2021-2022-yillarda "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida ilmiy-amaliy seminar va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot dasturlarini o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 23-yanvardagi 4-son ma'lumotnomasi). Natijada, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, jamiyatda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag'rikenglik, ular dunyoqarashida milliylik va umuminsoniylik uyg'un bo'lishi e'tirof etilgan hamda ushbu tadqiqot natijalaridan Markazda uslubiy tavsiyalar, dastur va qo'llanmalar yaratish ishlar natijadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

mutafakkirning falsafiy qarashlaridagi qonun ustuvorligi tamoyillari yunon va Sharq mutafakkirlari qarashlari bilan qiyosiy tahlil etilib, allomaning inson hayotining eng oliy qadriyat ekanligi, odil hukmdor qiyofasi, qonunning xalqparvarligi va jazoning gumanistik xarakterda bo'lishi lozimligiga doir tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-88 sonli "O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida tolerantlik tamoyilining tutgan o'rni (qadimgi davrdan to hozirgi vaqtga qadar)" (2017-2020 yy) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining 2023 yil 3 maydagi 04/11-2615-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh avlodni Nasiriddin Tusiyning ma'naviy merosida ilgari surilgan kattalarga hurmat, yoshlarga g'amxo'rlik, ezgulik va insoniylik, mehribonlik va bag'rikenlik, vatan va xalqiga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, oila masalasiga doir g'oyalari asosida barkamollik, komillik va oila muqaddas, uni doim asrab-avaylash kerakligi ruhida tarbiyalashda hamda yurtimiz faravonligi, mustaqilligini mustahkamligini ta'minlashda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar keltirilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar ochib berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Nasiriddin Tusiy yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit”** deb nomlangan birinchi bobida Nasiriddin Tusiy ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi sarchashmalari, ilk o'rta asr Sharq falsafasining Tusiy qarashlariga ta'siri va alloma ilmiy-ma'naviy merosi tahlil etilgan.

Dissertatsiyada O'rta Osiyo va Eron xalqining tarixida ismoiliylar to'rt yuz yildan ziyod vaqt mobaynida davlatchilik tarixida muhim rol o'ynagani, ular yunon falsafasidan foydalangan holda ratsionalistik qarashlarni rivojlantirib, jamiyatdagi o'qimishli insonlar bilan birga ko'plab olimlar va arboblarni o'z tomoniga ag'dara olishga erishganligi ta'kidlangan¹. Tusiyning ismoiliylar ta'limotiga bo'lgan qiziqishi uning bolaligidan boshlangan edi. Chunki mutafakkirning tog'asi ismoiliylar ta'limotiga sodiq bo'lgan tarixchi hamda falsafa ilmi bo'yicha mashhur olim Shahrisoniyning shogirdi bo'lgan. Alloma yoshligida u kishining qo'lida tahsil olgan va ismoiliylar ta'limotidan bir muncha xabardor edi².

Dissertant fikricha, Tusiy Nishopurda Imom Sirojiddin Qamariy, Qutbiddin Sarahsiy kabi olimlardan mantiq va tib ilmlarining asoslarini o'rganadi. Bu yerda u zamonasining ulkan olimlaridan hisoblangan Al Attor bilan tanishadi. O'zi keyinchalik qayd etgani kabi bu shaxsiyat uning ilmiy dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynagan. U hayotining keyingi davrida Xuroson, Hirot va Xorazmga ketadi. O'z davrining taniqli olimlaridan hisoblangan Kamolliddin Mavsum Abduldandan umumiy ilmlar bo'yicha, shayx Burxoniddin Muhammaddan hadislar bo'yicha, Qutbiddin Misriydan til bo'yicha, Abul Hasan ibn Badraqiydan riyoziyot, astronomiya bo'yicha darslar oladi. Sharq tabobatining otasi hisoblangan Ibn Sinoning (980-1037 yy) **“Kitob al Qonun”** asari bilan tanishadi. Bu buyuk asarni o'z zakovati bo'yicha tahlil va talqin etadi.

¹ Гафуров Б. Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. В 2-х книгах / Отв. ред. Б. А. Литвинский. - 2-е издание. - Душанбе: Ирфон, 1989. - С.118

² Рзакулизаде Дж. Некоторые аспекты жизни и творчества Насир ад-Дина Туси // Ишрак: Ежегодник исламской философии. №4; Ishraq: Islamic Philosophy Yearbook. No. 4. – Москва: Восточная литература, 2013. – С.395

Dissertatsiyada Nasiriddin Tusiyning hayoti va ijodini o'rgangan tadqiqotchi olim G.D.Mamedbeyli "Marog'a observatoriyasining asoschisi Nasiriddin Tusiy" nomli asarida faylasufga ustozlik qilgan olimlardan Kamoliddin Ma'sum va Badriddin Misriylarni tilga olganligi ta'kidlanadi ¹.

Dissertant fikricha, Nasiriddin Tusiyning 150 dan ortiq asari bo'lib, ulardan 25 tasi fors tilida, qolganlari esa arab tilida yozilgan. Tusiy yozgan asarlarning o'ziga xosligi shundaki, unda fikrlar bayoni yorqin, tushunarli iboralarda aks etgani hisoblanadi. Alloma yunon, arab, fors, turk tillarini juda chuqur bilgan. Geomantiyaga oid risolasini uch tilda – arab, fors va turk tillarida yozgan. Tusiy "Al-Muhokamat aynil – Muhokamatayn" ("Ikki xil mulohaza haqida mulohaza") asarida musulmon mutafakkiri Abu Homid al-G'azzoliy bilan mashshoiyyun oqimidagi arab faylasufi Ibn Rushd (1126-1198 yy) o'rtasidagi bahsni tahlil qilib, ularning farqi va ahamiyati borasidagi mulohazalarini tahlil etgan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra Tusiy Ibn Sinoning "Tib qonunlari"ni sevib o'qigan. Tibga oid bir qator asarlar yozish bilan bir qatorda Ibn Sinoning "Tib qonunlari" hamda "Ishorat" asarlariga sharhlar yozgan. Tusiy dunyoqarashiga Ibn Sinoning faqat tibbiyotga oid asarlarigina emas, balki falsafiy, mantiqiy asarlari ham kuchli ta'sir qildi. Asarlarining ko'pchiligida u Ibn Sino fikrlarining mantiqiy izchil davom ettirganini guvohi bo'lamiz.

Abu Ali ibn Sinoning shogirdi Baxmaniyor (Kamoliddin Muso ibn Yunus) shogirdlari Abu Al Abbos, shogirdi Afzalliddin Giloniy, shogirdi Sadriddin Saraxsiy Fariduddin Domodiyning shogirdi - Nasiriddin Tusiy bo'lgan. Bu ustoz shogird shajarasi shundan darak beradiki, Nasiriddin Tusiy Ibn Sino shogirdlarining shogirdlaridir. Aniqrog'i Nasiriddin Tusiy Ibn Sinoning beshinchi avlod shogirdlari bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Dissertatsiyada Abu Ja'far Muhammad ibn Muhammad ibn Hasan Nasiriddin Tusiy 1201 yilning 18-fevralida Eronning Xuroson shahrida Firuzshox Jehrudiy nomi bilan tanilgan Shayx Vajhiddin ibn Hasan oilasida tug'ilganligi ta'kidlangan ². Tusiyning otasi o'z davrining ziyoli, ilm egasi bo'lganligi sababli u o'z farzandlariga yaxshi ta'lim-tarbiya berishga harakat qilgan. Tusiyning yoshligi Xurosonning Tus shahrida o'tgan. Alloma dastlabki ma'lumotlarni qonunshunos va dinshunos otasidan olgan. Yosh bo'lishiga qaramasdan mutafakkir Qur'on, morfologiya va sintaksisni qunt bilan o'rgangan. Tusiy o'zining yoshligi haqida xotiralab shunday yozadi: "Mening tarbiyam asosan islom ilohiyotchilari va shariatga itoat etuvchi insonlar orasida o'tdi. Mening yaqin qarindoshlarim ilmda taniqli insonlar bo'lishgan. Dastlab men ularning rahbarligida tarbiyalanib, islomni qalbm bilan his etib, bu dindan boshqa din borligini men tasavvur qilmagan edim. Mening otam o'qimishli donishmand inson bo'lib, u o'z amakisi va Doi at-duat Tojiddin Shahrisoniyning izdoshidan ta'lim olgan. U menga turli xil ilm-fanlarni va boshqa diniy ta'limotlardan saboq bergan birinchi ustozim bo'lib, otam menga

¹ Мамедбейли Г.Д. Оснаватель Марагинской обсерватории Насируддин Туси.-Баку: 1961. -С.24

² İslam Ansiklopedisi (MEB),- İstanbul: 1988. -S.12

har doim ilm o'rganishda faqat diniy ta'limotlar bilan cheklanib qolmasligim va boshqa fanlarni ham o'rganishimni maslahat bergan edi"¹.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Tusiyning falsafa ilmiga qo'shgan hissasi yuqori bo'lib, u avvalo ushbu ilmga tasnif berib, nazariy va amaliy falsafa haqida mulohaza yuritgan. Falsafiy dunyoqarash bilan ilmiy dunyoqarash orasidagi dialektik aloqadorlikni ochib bergan; Falsafadagi makon (fazo), vaqt, miqdor va uning tarkibiy qismlari, son, hajm, miqdor kategoriyasining mohiyatini izohlab, uning iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi amaliy ahamiyatini asoslab bergan. Fanlarni tasniflash va axloqshunoslik fanini o'z qarashlari bilan boyitgan.

Dissertant fikricha, jahon matematikasi olamida uning nomi Pifagor, Yevklidlar nomi bilan yonma-yon turadi. Ulug'bekning astronomik maktabi xodimlari uning asarlaridan foydalanishgan. Ilmiy maktabning atoqli olimi G'iyosiddin Jamshid "Hoqonning mukammallashtirilgan Elxon jadvallari" asarini yozgan. Bu astronomik jadvallar asosida esa Marog'a rasadxonasida Nasiriddin Tusiy rahbarligida tuzilgan jadvallar yotadi. Nasiriddin Tusiy tarix, falsafa, mantiq kabi fanlar sohasida 50 ga yaqin katta va kichik asarlar yozdi.

Dissertatsiyada Nasiriddin Tusiyning matematika va astronomiyaga oid asarlari ko'plab tillarga tarjima qilinganligi, asrlar davomida yetakchi olimlar tomonidan keng foydalanilganligi ta'kidlangan. Jumladan, nemis faylasufi Ogyust Kont pozitiv falsafa sohasida olimlar haqida tuzgan kalendarida hafta kunlaridan birini nomini Tusiy nomi bilan atagan bo'lsa, boshqa bir kunning Ibn Sino nomi bilan ataganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud².

Dissertant fikricha, mutafakkirning yashab o'tgan davrini uchga bo'lish mumkin:

1. Yoshligidan toki ismoiliylarga qo'shilganiga qadar bo'lgan davr. Ushbu davrda olim dastlabki ta'limni (Qur'on, hadis, grammatika va fiqh) o'z otasidan o'rgangan bo'lsa, mantiq va falsafani to'g'asidan o'rgangan edi.

2. Nishopurda yashab turgan vaqtda mo'g'ullarning Eronga bosqini boshlangan davr. Bu davrda u o'z hayotini saqlab qolish va ilm hamda tadqiqotlar olib borish maqsadida tinch joyni qidira boshladi. Mo'g'ullar tomonidan istilo qilinmay qolgan hududlardan ismoiliylar davlati qolgan edi. Bu davlat o'sha vaqtda falsafa va kalom ilmini yanada rivojlantirish, bu yo'nalish uchun maxsus kitoblar yozish va qobiliyatli yoshlarni o'qitib, tarbiyalash maqsadida o'z saroyiga ko'plab olimlarni taklif qilib, ular uchun barcha sharoitlar hamda katta imkoniyatlarni yaratib bergan edi. Mutafakkir ismoiliylar davlatiga ijod qilish maqsadida Ko'histon Hukmdori Abd ar-Rahim bin Abu Mansur Muhtasham saroyiga munajjim sifatida o'z faoliyatini boshladi.

3. 1258-yil Hulagu xon tomonidan Abbosiylar xalifaligining zabt etilishi faylasuf olim hayotining uchunchi bosqichi hisoblanadi. Mutafakkirning Hulaguxon saroyida boshlagan xizmati va undan keyin umri davomida qilgan

¹ Xacə Nəsirəddin Tusi. Rəhim Sultanovun farscadan tərcüməsi. Əxlaqi-Nasiri. Bakı: "Lider nəşriyyat", 2005. –B. 285

² Шоджаи Г., Шоджаи С., Взгляды Насир Ад-Дина Туси на государственное управление // Историческая и социально-образовательная мысль. 2014. - № 5 (27). – С.341

barcha xizmatlari Eron davlatining fan va madaniyati hamda islom ilmining ravnaqi uchun ulkan hissa qo‘shganligi bilan tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Dissertatsiyaning **“Nasiriddin Tusiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Tusiy merosida “davlat” va “davlat boshqaruvi” kategoriyalarining falsafiy mohiyati, shuningdek, Nasiriddin Tusiy falsafiy ta’limotida jamiyat va uning falsafiy talqini kabi masalalar tahlil qilingan.

Dissertant fikricha, Tusiy davlatga oid qarashlari bo‘yicha o‘z davrning birinchi nazariyotchilaridan biri edi. Mutafakkir davlatni insonlar hamjamiyatidan tashkil topgan tuzilma, deb ta’kidlab, insonlar hech qachon yakka holda yashash uchun eng muhim narsalar bilan o‘zlarini ta’minlay olmasliklarini uqtiradi. Alloma nazariyotchi va amaliyotchi olim sifatida insonlar o‘z ixtiyorlari bilan birlasha olishsagina ular degradatsiyaga uchramasligini, buning uchun esa jamiyat a’zolarining o‘zlari tashkil etgan o‘z ittifoqlari va tashkilotlari bo‘lishi zarur, deb e’tirof etadi¹.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Tusiy davlatni siyosiy jamiyat, odamlar hamjamiyati deb tushunadi. Umuman olganda allomaning davlat to‘g‘risidagi falsafiy qarashlarida davlat va jamiyat tushunchalari bir xil bo‘lgan. Shu sababli bo‘lsa kerak, mutafakkir xalqning hayotini davlatdan tashqarida mavjud bo‘lishini tasavvur qila olmagan. Bu haqda u shunday deydi: “Dunyo odamlari shunday bir tabiiy tuzulmani shakllantiradiki, agar kimdir bu tuzulmadan chiqib, yolg‘iz yashashga qaror qilsa, u holda u yolg‘izlikda, azob-uqubatda va qiyinchilikda qoladi”². Insonlar, moddiy dunyoning boshqa turlari kabi, ko‘p jihatdan boshqa mavjudotlarning yordamiga muhtoj. Borliq iyerarxiyasidagi moddiy borliqlar orasida eng yuqori darajada turuvchi inson boshqa mavjudotlardan farqli o‘laroq, o‘zidan yuqori mavjudotlarga xizmat qilmaydi. Aksincha boshqa tomondan, u o‘ziga xos va quyi mavjudotlardan foydalanadi. Unsurlar, minerallar, o‘simliklar va hayvonlardan o‘z manfaati uchun foydalanish vakolati va qobiliyatiga ega bo‘lgan inson o‘z turi doirasida ham o‘zaro yordamlashish orqali qobiliyatga erishish yo‘lida rivojlanadi.

Tadqiqotda mutafakkirning inson va davlat o‘rtasidagi munosabatlariga qaratilgan falsafiy qarashlarida davlat ham, inson ham bir-birisiz mavjud bo‘la olmasligini, davlat har doim insonning faol bo‘lishiga ehtiyoj sezgani singari, inson ham davlatdan uni doim qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezishini aytib o‘tganligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari inson va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda alloma ba’zi bir kelishmovchiliklar ham kelib chiqishi mumkinligini ta’kidlar ekan, bunday kelishmovchiliklar hech qachon davlatni tanazzulga uchrashiga olib bormasligi kerakligi hamda davlat o‘z navbatida insonlarni davlat qonunlariga itoat etishiga da’vat etib, bu ularning o‘z vijdoni va xalqi oldidagi burchidir, deb ta’kidlaydi.

Dissertant fikricha, davlatning rivojlanishi, uning mustahkamligi va uzoq yashashi albatta undagi mavjud ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va

¹ Xacə Nəsirəddin Tusi. // Rəhim Sultanovun farscadan tərcüməsi. Əxlaqi-Nasiri. - Bakı, “Lider nəşriyyat”, 2005. - S.285

² Xacə Nəsirəddin Tusi. // Rəhim Sultanovun farscadan tərcüməsi. Əxlaqi-Nasiri. - Bakı, “Lider nəşriyyat”, 2005. - S.288

munosabatlarga bog'liqdir. Shahar (davlat) a'zolarining ijtimoiy sinflarga bo'lish bo'yicha faylasuf "birinchi sinfga" davlatni har tomonlama barqarorligini ta'minlovchi guruh deb, qalam ahlini, "ikkinchi sinfga" davlat ichida va tashqarisida chegaralarni qo'riqlovchi va iymon uchun kurashuvchilar hamda davlat boshlig'ining irodasini bajaruvchilar, deb qilich ahlini, "uchinchi sinfga" esa jamiyat va xalqning farovonligini ta'minlovchi ishbilarmonlarni kiritadi. To'rtinchi guruh vakilliriga esa asosan xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi dehqonlar kirishgan. Tusiy "Jamiyat a'zolari kim bo'lishidan qat'iy nazar ularsiz yashay olmasligini ta'kidlaydi"¹. Mana shu to'rtinchi sinf vakillari bo'lmish dehqon xo'jaligi asosida har qanday davlat farovon va to'q bo'lishi mumkinligini allomaning falsafiy g'oyalarida alohida ta'kidlanganligini ko'rish mumkin.

Disertatsiyada qadimgi Yunoniston va Sharq falsafasining ilg'or faylasuflari Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sinolarning ta'limotlari asosida o'z qarashlarini shakllantirgan Nasiriddin Tusiy davlatga oid qarashlarida jamiyat a'zolarini turli belgilariga qarab guruhlarga bo'lganda ko'chmanchi chorvadorlarni birorta guruh vakillariga kiritmaganligi ta'kidlanadi. Vaholanki, mo'g'ullar bosib olgan hududlarda davlat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi asosiy kuchlardan biri bu ko'chmanchi chorvadorlar hisoblanar edi. Tusiy "davlat siyosatida", "mudofaa siyosatida", "boshqaruv siyosatida" ijtimoiy va huquqiy masalalar bo'yicha mo'g'ul hukmdori Hulaguxonga asl, noyob takliflarni taqdim etgan².

Dissertant mulohazalariga ko'ra, jamiyatning asl tuzilishi haqidagi fikrlar bir tomondan falsafiy qarashlar bo'lsa, ikkinchi tomondan sotsiologiya va uning predmeti to'g'risidagi qarashlar bilan ham xarakterlanadi. Islom falsafasi olamida jamiyatning asl tabiati haqida falsafiy nuqtai nazardan yondoshgan shaxs Nasiriddin Tusiydir. "Har bir tarkibiy ibtidoaga hukm (qonun), xususiyatlar va tarkib (yangi shakl) xos bo'lib, u ular tufayli yagonalik sifatida farqlanadi va ajralib turadi, biroq ular unga tegishli bo'lgan qismlarga xos emas. Xuddi shunday tarzda kishilar hamjamiyati shuningdek, o'z tuzilmasini inobatga olib hukm, xususiyat va tarkibga ega bo'lib ular mazkur jamiyatning har bir individiga xos emasdir"³.

Dissertant fikricha, Nasiriddin Tusiy o'zining jamiyat haqidagi falsafiy qarashlari orqali jamiyat oldida turgan maqsadga erishish uchun o'zaro yordam muhimligini ta'kidlaydi. Uningcha, o'zaro yordam, ya'ni (ta'avun) bu shunday aloqaki, bu aloqada ikki tomonning ham tengligi mavjud bo'lishi shart. Faylasuf jamiyatda jamoaviy vijdonning mavjudligi va jamoa a'zolari doim mukamallikka muhtoj bo'lishlariga ishonib qaraydi. Buni u quyidagicha izohlaydi: "Inson zoti o'zini va avlodlar davom etishini saqlab qolishi uchun bir-biriga muhtoj bo'lishadi. Bundan tashqari inson mukamallikka erishishi uchun ham o'z turining yordamiga muhtoj bo'ladi. Shunday ekan, inson o'z turidagilar bilan o'zaro yordamda va

¹ Рзаев А.К. Туси. Ташкулов Д. Дониш Из истории политической и правовой мысли. -Москва: "Юридическая литература", 1990. -С.23

² Дениз, Р. Насирэдин Туси-ученый, опередивший века /Рамиз Дениз; перевод Е.Шейхзаде; научный редактор Э.Мехралиев; автор предисловие Р.Мамедов.- Баку: ММ-С, 2013. – С.125-126

³ Хасе Нәсирәддин Туси. // Рәһим Сұлтановун фарсәдан тәрҷүмәси. Өхлақи-Нәсирі. - Бақи, "Lider nәşriyyat", 2005. - S.279-280

muloqot qilishda qo‘shilib yashamog‘i zarur, aks holda adolat qoidalarini buzgan holda zulm etuvchilar bilan qo‘shilib ketishiga sabab bo‘ladi”¹.

Dissertatsiyada jamiyatda jamoat tartibi va barqarorlikning bo‘lishida mehnat taqsimoti vositasi orqali erishish mumkin ekanligi ta’kidlanadi. Buning isbotini Tusiy uch sababda ko‘rsatadi:

1. Har bir inson o‘z qobiliyati va mahoratidan kelib chiqqan holda u yoki bu ish bilan shug‘ullanadi. Agarda inson o‘z qobiliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan boshqa bir ish bilan shug‘ullansa, u holda ko‘zlangan natijaga erisholmaydi.

2. Inson ko‘p yillar davomida faqat bitta kasb bilan shug‘ullanishi natijasida tajriba va yuqori mahorat egasi bo‘ladi.

3. Ikki yoki undan ortiq kasblar bilan shug‘ullanayotganda inson har bir kasb uchun alohida vaqt ajratishi kerak bo‘ladi. Agar ajratilgan vaqt ikki kasb bilan to‘qnash kelib qolsa, u holda insonning bir vaqtda ikkala kasbni bajarishiga vaqt ajrata olmasligi oqibatida jamiyatdagi o‘zaro yordamning umumiy zanjirdan bitta bo‘g‘inining yo‘qolishiga olib keladi. Ijtimoiy mehnat taqsimotida adolat bo‘yicha har kim o‘z joyiga o‘tirishi va o‘z joyidan boshqa joyga hatlab o‘tishi mumkin emas.

